

**“GULISTON” ASARIDA QO‘LLANGAN SIFAT+FE’L
MODELIDAGI QO‘SHMA FE’LLAR XUSUSIDA**

Turdaliyev Olimjon Fayzullajon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktranti

E-mail: olimjonturdaliyev@gmail.com

Annotatsiya. Fe’l turkumi o‘zining morfologik, sintaktik va morfemik xususiyatlariga ko‘ra, shuningdek, analitik shakllarga boy ekanligi bilan ham boshqa so‘z turkumlaridan ajralib turadi. Fe’l turkumidagi analitik shakllarning eng yorqin namunasi sifatida qo‘shma fe’llarni keltirish mumkin. Qo‘shma fe’llarning ism qismi sifatida turli so‘z turkumlari – ot, sifat, ravish, undov so‘zlar, sifatdoshlar, harakat nomi, fe’l masdarlari – kelishi mumkin. Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asarida ham qo‘shma fe’l yasalishining xilma-xil modellari uchraydi. Biz ushbu maqolada *sifat+fe’l* modelidagi qo‘shma fe’llarning tahlilini amalga oshiramiz.

Kalit so‘zlar: sodda fe’l, yordamchi fe’l, qo‘shma fe’l, sifat, analitik shakl, sifatning ma’no guruhlari.

Аннотация. Глаголы отличаются от других групп слов своими морфологическими, синтаксическими и морфемическими характеристиками, а также тем, что они богаты аналитическими формами. Можно назвать сложных глаголов наиболее яркими примерами аналитических форм в группе глаголов. В качестве существительных сложных глаголов могут выступать различные группы слов – существительные, прилагательные, наречия, междометия, прилагательные, названия действий, инфинитивы глаголов. Различные модели сложных глаголов встречаются и в произведении Саади Ширази «Гулистан». В этой статье мы разберем сложные глаголы в модели прилагательное+глагол.

Ключевые слова: простой глагол, вспомогательный глагол, сложный глагол, прилагательное, аналитическая форма, смысловые группы прилагательного.

Abstract. The verb group differs from other word groups by its morphological, syntactic and morphemic characteristics, as well as by the fact that it is rich in analytical forms. Compound verbs can be cited as the most vivid examples of analytical forms in the verb group. Various word groups can appear as nouns of compound verbs - nouns, adjectives, adverbs, interjections, adjectives, names of actions, infinitives of verbs. Different models of compound verbs are also found in Saadi Shirazy's work "Gulistan". In this article, we will analyze compound verbs in the Adjective+verb model.

Key words: simple verb, auxiliary verb, compound verb, adjective, analytical form, meaning groups of adjective.

“Guliston” asari fors-tojik adabiyotidagi eng sara asarlardan biri hisoblanadi. Asarda kam miqdorda bo‘lsa-da, sifat turkumiga oid so‘zlar ishtirokida yasalgan qo‘shma fe‘llar kuzatiladi. *Sifat+fe‘l* modelidagi qo‘shma fe‘llarning ism qismi vazifasida sifat turkumining turli ma‘no guruhlariga mansub so‘zlar kelishi mumkin. Shu xususiyatiga ko‘ra “Guliston” asarida uchrovchi mazkur modeldagi qo‘shma fe‘llarni quyidagi ichki semantik guruhlariga ajratish mumkin:

1. **Holat bildiruvchi sifat+fe‘l.** Mazkur modeldagi qo‘shma fe‘llar sifatning boshqa ma‘no turlari ishtirokidagi qo‘shma fe‘llardan son jihatdan ustunlik qiladi. *Sifat+fe‘l* modelidagi qo‘shma fe‘llarda ham bir sifat bir necha yordamchi fe‘llar bilan ham qo‘shma fe‘l hosil qilishi mumkin.

به خاطر داشتم که چون به درخت گل رسم دامنی پر کنم هدیه اصحاب را، چون برسیدم بوی گل چنان مست کرد که دامنم از دست برفت.

Be xāter dāštam ke, čun be deraxt-e gol berasam, dāmani por konam, hadye-ye as’hābrā čun berasidam, bu-ye golam čonān mast kard ke dāmanam az dast raft.

Tarjimasi: *Ko‘nglimda bor ediki, gul daraxtiga yetsam, as’hoblar hadya qilish uchun bir etak to‘ldiraman. Gulga yetgan paytimda esa uning ifori shunday mast qildiki, etagim qo‘ldan tushdi.*

Yuqoridagi jumlada keltirilgan, *mast* soʻziga fors tili izohli lugʻatlarida “*sharob taʼsir qilgan, may va boshqalarni ichish natijasida oʻzgargan, sharob taʼsirida qattiq oʻzidan ketgan*” kabi maʼnolari beriladi. Jumla tarkibida esa *mast kardan* feʼli koʻchma maʼnoda qoʻllanib, jismoniy jihatdan emas, ruhiy jihatdan mastlik maʼnosini oʻzida xususiylashtirgan.

سر چشمه شاید گرفتن به بیل

چو پر شد نشاید گذشتن به بیل .

Sar-e čašme šāyad gereftan be bil,

Ču por šod našāyad gozaštan be pil.

Mazmuni: *Chashmani bel bilan toʻsish mumkin, toʻlib oqqan paytda esa filda ham oʻtib boʻlmaydi.*

Yuqoridagi jumlada *پر* (*por – toʻla*) sifatining شدن (*šodan – boʻlmoq*) va کردن (*kardan – qilmoq*) yordamchi feʼllari bilan birikib qoʻshma feʼllar yasaganini koʻrish mumkin. Mazkur feʼllar bir-biridan oʻtimli yoki oʻtimsizligi, nisbati va valentligiga koʻra farqlanuvchi bir feʼlning ikki ekvivalentidir. شدن feʼli bilan aksariyat holatlarda oʻtimsiz, کردن feʼli bilan esa oʻtimli qoʻshma feʼllar yasaladi. Fors tili izohli lugʻatlarida *poʻr* soʻzi sifat turkumi sifatida koʻrsatilib, *toʻla*, *toʻlgan*, *lim*, hamda oyga nisbatan *toʻlin* kabi ifoda etishi, shuningdek, ism qoʻshilib, sifat yasovchi old qoʻshimcha sifatida ham qoʻllanishi qayd etilgan.

پُر [په .] (ص .) 1 - سرشار ، انباشته . 2 - تمام ، کامل (ماه) . 3 - پیشوندی است که بر سر اسم یافعل می آید و صفت می سازد . مانند پُرآب ، پُرکار .

راضی (*rāzi*) soʻzi arab tilida foil vaznidagi aniq nisbat sifatdoshi sanaladi. Fors tilida esa mazkur soʻz sifat xarakterini oʻzida xususiylashtirgan. Quyidagi jumlada mazkur soʻzning بودن (*budan – emoq, boʻlmoq*) feʼli bilan qoʻshma feʼl yasagan:

یا بتشویش و غسه راضی باش

یا جگر بند پیش زاغ بنه .

Yā betašwiš wa γosse rāzi bāš,

Yā jegarband piš-e zāγ beneh.

Mazmuni: *Yo tashvish-u gʻussaga rozi boʻl, Yo joningni jabborga ber.*

Quyidagi o'rinda ham ko'makchi fe'l sifatida keluvchi بودن (*budan-bo'lmoq, emoq*) fe'li bilan qo'shma fe'l yasalganini ko'rish mumkin:

گل همین پنج روز و شش باشد

وین گلستان همیشه خوش باشد

Gol hamin panj ruz wa šeš bāšad,

Wa in Golestān hamiše xuš bāšad.

Mazmuni: *Gul zamoni besh-olti kun davom etadi, ammo bu Guliston hamisha abadiydir.*

“Guliston” asaridan kuzatiladiki, *sifat+fe'l* modeli asosida yasalgan qo'shma fe'llarda asosan *šodan* (*bo'lmoq*), *budan* (*bo'lmoq, emoq*), *kardan* (*qilmoq*) yordamchi fe'l sifatida keladi.

پسر نوح با بدان بنشست

خاندان نبوتش گم شد.

Pesar-e Nuh bā badān benešast,

Xānadān-e nobouwataš gom šod.

Mazmuni: *Nuhning o'g'li yomonlar bilan o'tirdi, natijada payg'ambarlik xonadoni yo'qoldi.*

Sifat+fe'l modeli asosida yasalgan qo'shma fe'llarda ham ism qismning fe'l qismidan avval kelish holati ham uchraydi:

شنیدم که مردان راه خدای

دل دشمنان را نکردند تنگ.

Šenidam ke mardān-e rāh-e xudāy,

Del-e došmanānrā nakardand tang.

Mazmuni: *Eshitdimki, Olloh yo'lidagi insonlar (zohidlar, oriflar, xudojo'ylar) hattoki dushmanlarning dilini ham og'ritmagan.*

Quyidagi juhlada esa *tang* so'zi boshqa bir sodda fe'l *dāštan* (*tutmoq, ega bo'lmoq*) bilan birikib, qo'shma fe'l hosil qilgan:

خود را در از این سخن که شنیدی دل تنگ مدار که در این روزها دزدی به صورت درویشان برآمده
سلک صحبت ما منتظم کرد.

*Az in soxan ke šenidi del **tang madār** ke dar in ruzhā dozdi be surat-e darwišān bar āmade xudrā dar solok-e mā montazam kard.*

Mazmuni: *Eshitgan bu soʻzdan diling ranjimasinki, shu kunlarda bir oʻgʻri darvishlar qiyofasiga kirib, oʻzini bizning jamoamiz suhbatiga muntazam qilgan.*

Baʼzi oʻrinlarda qoʻshma sifatlarning sodda feʼllar bilan birikib, qoʻshma feʼllarni hosil qilishi mumkin. Quyidagi jumla tarkibida kelgan *diltang šodan* qoʻshma feʼlining ism qismi *diltang* soʻzi “*ism+sifat*” [1. B. 44] qolipidagi qoʻshma sifat sanaladi [2. B.161].

دزدی به خانه پارسایی در آمد چندان که جست چیزی نیافت. **دلتنگ شد.**

*Dozdi be xāne-ye pārsā-yi dar āmad, čandān ke jost, čizi nayāft. **Deltang šod.***

Mazmuni: *Bir oʻgʻri bir xudojoʻyning uyiga kirdi, qancha qidirsam ham, hech narsa topolmadi va xafa boʻldi.*

Qiyosiy darajadagi sifatlarning ham sodda feʼllar bilan birikib, qoʻshma feʼl yasay olishi mumkin. Quyidagi jumla tarkibidagi *beh šodan* feʼli yuqoridagi fikrimizning dalili hisoblanadi:

پارسایی را دیدم که بر کنار دریا که زخم پلنگ داشت و بهیچ دارو به نمیشد.

*Pārsāirā didam ke bar kenār-e daryā ke zaxm-e palang dāšt wa behič dāru **beh namišod.*** (G. 168-bet).

Mazmuni: *Daryoning qirgʻogʻida yoʻlbars yarador qilgan bir xudojoʻyni koʻrdimki, hech dori bilan tuzalmasdi.*

Quyidagi jumlada ism qismi vazifasida kelayotgan sifatning *-tar* (-تر) qiyosiy daraja qoʻshimchasini qabul qilgan holda kelgan:

بوی پیاز از دهن خوبروی

نغزتر آید که گل از دست زشت.

*Buy-e piyāz az dahan-e xubruy, **Nayztar āyad** ke gol az dast-e zešt.*

Mazmuni: *Goʻzal yuzli kishining ogʻzidan kelgan piyozning hidi xunuk kimsaning qoʻlidagi guldan koʻra yoqimliroq boʻladi.*

Quyidagi jumlada sodda yasama sifatning *šodan* feʼli bilan qoʻshma feʼl hosil qilganini koʻrish mumkin.

مستجب عقوبتم در روز قیامت نابینا بر انگیز تا در روی نیکان شرمسار نشوم.

Mostawjeb-e oyubatam dar ruz-e qiyāmatam nābinā bar angiz tā dar ruy-e nikān šarmsār našawad.

Mazmuni: *Azob-uqubatga loyiqman, qiyomat kuni ko'r holatda tiriltirki, yaxshilarning qarshisida sharmisor bo'lmay.*

Quyidagi ikki gapda esa sifat turkumiga oid so'zlarning "gardānidan" (*aylamoq*) fe'li bilan qo'shma fe'l yasashi kuzatiladi:

که خون پدرش را و مادرش را بخواند و بنعمت بیکران خوشنود گردانیدند و قاضی فتوی داد یکی از رعیت ریختن سلامت شه را روا باشد.

Pedarašrā wa mādarašrā bexānd wa bene'mat-e bikarān xušnud gardānidand wa yāzi fatwā dād ke xun-e yeki az raeyyat rixtan salāmat-e šahrā rawā bāšad.

Mazmuni: *Ota-onasini chaqirdi va behisob ne'matlar bilan xursand qildilar va qozi "xalqdan birining qonining to'kilishi shohning salomatligi uchun ravo bo'lur" – deya fatvo berdi.*

اگر فرمان دهی من اورا به تریقی خاموش گردانم.

Agar farmān dehi, man urā be tariyi xāmuš gardānam.

Mazmuni: *Agar buyursang, men uni bir yo'l bilan tinchlantiraman.*

Quyidagi o'rinda esa *gaštan* fe'li bilan yasalgan qo'shma fe'lining kelishi kuzatiladi.

اگر مجنون لیلی زنده گشتی

حدیث عشق ازین دفتر نبشتی.

Agar Majnun-e Layli zende gašti, Hadis-e ešy az in daftar nabešti.

Tarjimasi: *Agar Laylining Majnuni tirilsa edi, ishq ilmini bu kitobdan yozardi.*

Mazkur jumla tarkibidagi "zende *gaštan*" (tirilmoq) fe'lining ism qismi sifatida kelayotgan zende so'zi pahlaviy tilidagi "zandak" so'zidan kelib chiqqan¹. Fors tilining leksik qatlamida ko'plab o'rta fors tili davriga, pahlaviy tiliga oid so'zlarning qo'llanilishi ham uchraydi.

¹ https://lamtakam.com/search?s=dictionaries&q=%D8%B2%D9%86%D8%AF%D9%87&s_s=amid
www.tadqiqotlar.uz

2. “**Shakl ifodalovchi sifat+fe'l**” modelidagi qo'shma fe'llarda ham ism qismining fe'l qismidan oldin kelish holati kuzatiladi. Bu holat yuqoridagi o'rinlarda ta'kidlaganimizdek, she'riy matnlarda vazn va ritm talabi bilan namoyon bo'ladi.

ای شکم خیره بتایی بساز
تا نکنی پشت به خدمت دوتا.

Ey šekam-e xire, betāyi besāz, Tā nakoni pošt be xedmat dutā.

Mazmuni: *Ey besharm qorin, bir nonga qanoat qil, to birovlarning xizmatiga belingni bukmaysan.*

Yuqoridagi jumlada keltirilgan *dutā kardan* qo'shma fe'lining ism qismi “*dutā*” ikki mustaqil so'zdan yasalgan: *du* (ikki) + *tā* (bukik joy).

3. **Rang bildiruvchi sifat+fe'l.** Rang-tus bildiruvchi sifatlarning yordamchi fe'llar bilan birikuvidan “sifatdan anglashilgan rang yoki tusga kirish” semasini ifodalovchi qo'shma fe'llar hosil bo'ladi.

پیر زنی موی سیاه کرده بود
گفتم: ای ماماک دیرینه روز.
موی بتلبیس سیاه کرده گیر
راست نخواهد شد این پشت کوز.

Pirzani muy siyah karde bud Goftam: Ey māmāk-e dirine ruz.

Muy betalbis siyah karde, gir, Rāst naxāhad in pošt-e kuz.

Mazmuni: *Bir kampir sochini qoraga bo'yagan edi. Unga dedim: “Ey yoshi ulug' onaxon, sochni pinhona qoraga bo'yagan bilan tushuning, axir, bu egik qomat to'g'ri bo'lib qolmaydi”.*

Rang-tusni ifodalovchi sifatlari asosan *kardan*, *šodan* fe'llari bilan qo'shma fe'llar yasaydi. Bunda *kardan* fe'li bilan o'timli, *šodan* fe'li bilan esa o'timsiz fe'llar hosil bo'ladi.

Shuningdek, “Guliston” asarida kam bo'lsa-da, maza-ta'm sifatlari ishtirokida ham qo'shma fe'llar yasalishi kuzatiladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, *šodan* fe'li bilan o'timsiz qo'shma fe'llar yasaladi. *Gaštan* fe'li ko'pgina o'rinlarda funksional jihatdan mazkur fe'lga ekvivalent bo'la oladi:

انگور نو آورده ترش طعم بود

روزی دو سه صبر کن که شیرین گردد.

Angur-e nou āwarde torš ta'm buwad, Ruzi du se sabr kon ke širin gardad.

Mazmuni: *Xom uzum nordon bo'ladi, ikki uch kun sabr qilsang, shirin bo'ladi.*

Ba'zi o'rinlarda ism qism vazifasida kelayotgan so'z ham ko'chma ma'noda kasb etishi mumkin. Quyida maza-ta'mni bildiruvchi "shirin" so'zi sifatning boshqa bir ma'noviy turi xususiyatni bildirib kelgan:

گرت از دست بر آید دهنی شیرین کن

مردی آن نیست که مشتی بزنی بر دهنی.

Garat az dast bar āyad dahani širin kon

Mardi ān nist ke mošti bezani bar dahani.

Mazmuni: *Agar qo'lingdan kelsa, tilingni shirin qil, chunki erkaklik kimningdir dahaniga musht tushirish emas.*

"Guliston" asarida yana shunday qo'shma fe'llar uchraydiki, ularning ism qismi aslan sifatdosh bo'lib, transpozitsiya usulida sifat turkumiga ko'chgan so'zlar hisoblanadi. Sifatdoshning sifatga ko'chishi uning sintaktik funksiyalaridan biri bo'lgan aniqlovchilik vazifasidan kelib chiqadi. Sifatdosh sifatga ko'chganda sodir bo'ladigan asosiy lisoniy hodisalardan biri uning fe'llik xususiyatlarini, dinamik belgi bildirishini yo'qotib, doimiy belgi bildirishga o'tishidir. Bu holat ko'pgina tillarda umumiy qonuniyatlarga ega hisoblanadi [3. C.5]. Xususan, turkiy tillar oilasining vakili bo'lgan o'zbek tilida ham sifatdoshlarning sifat turkumiga transpozitsiyasi ko'p uchraydi: Masalan, *kelishgan, ketvorgan, tirishgan* va b. Fors tilida ham o'tgan zamon sifatdoshlarining sifat turkumiga ko'chishi hodisasi uchrab turadi. "Guliston" asarida quyidagi misollarni uchratish mumkin:

آن دروغ وی پسندیده تر آمد مرا ازین راست که تو گفتی.

Ān doruy-e wey pasandidetar āmad marā az in rāst ke tu gofti.

Tarjimasi: *Sen aytgan bu rost gapdan ko'ra uning yolg'oni menga ko'proq yoqdi.*

Pasandide so'zi pasandidan fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi sanaladi.

Ba'zi o'rinlarda sodda fe'lining hozirgi zamon o'zagi ham sifat xarakterini o'zlashtirib, sifatlashishi va *sifat+fe'l* modelidagi qo'shma fe'llarning ism qismi vazifasida kelishi mumkin. Quyidagi jumlada kelgan *pasand āmadan* fe'lining ism qismi “*pasand*” “*pasandan*” fe'lining hozirgi zamon o'zagi sanaladi:

قاضى را نصيحت ياران يكدل پسند آمد و بر حسن راي قوم آفرين خواند.

Gāzirā nasihat-e yārān yekdel pasand āmad wa bar xusn-e rāy-e γoum āfarin xānd.

Tarjimasi: *Qoziga do'stlarning nasihati xush keldi va ul toifaning zakovatiga tahsin aytdi.*

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinadiki, *sifat+fe'l* qolipidagi qo'shma fe'llarda yordamchi fe'l vazifasida asosan *šodan*, *kardan*, *āmadan* va *gaštan* fe'llari keladi. *šodan*, *āmadan* va *gaštan* fe'llari asosan holat ma'nosini ifoda etuvchi o'timsiz fe'llarni, *kardan* fe'li esa agens valentligi bilan birgalikda obyekt valentligiga ham ega bo'lgan o'timli fe'llarni yasashda xizmat qiladi. Mazkur model asosida yasalgan qo'shma fe'llarning umumiy hosila ma'nosi esa ism qismi vazifasida kelgan sifatning leksik ma'nosi asosiga quriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Quronbekov A. Forscha-o'zbekcha va o'zbekcha-forscha tilshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: Sharqshunoslik universiteti, 2015. – B. 44.

2. حسن انوريو و احمد . دستور زبان فارسی 2. – تهران: فاطمی، 1390. – ص. 161
گیوی

3. Лукин М.Ф. Переход причастий в прилагательные и существительные в современном русском литературном языке. Автореферат дис.кан.фил.наук. – Киев, 1965. – С. 5.

4. Fayzullajon o'g'li, T. O. (2022). “Shavqi guliston” asari matnining tuzilishi. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 192-195.

5. Fayzullajon o'g'li, T. O. (2023). “Guliston” dagi “fe'l masdari+gereftan” modeli fe'l shakllari borasidagi nazariy qarashlar. Theory and analytical aspects of recent research, 2(16), 149-152.

6. Fayzullajon o'g'li, T. O. (2023). *هـ (Be) prefiksi+ism+yordamchi fe'l modelidagi qo'shma fe'llar xususida. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 382-386.*